

SANOATDA INNOVATSION JARAYONLARNI TASHKIL ETISH “HAMZA EXPO ART TEXTILE” KORXONASIDA INNOVATSION BOSHQARUV VA INVESTITSION MEXANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Rustamov Elyorbek

FDTU magistranti

Annotatsiya

Ushbu ilmiy maqolada “Hamza Expo Art Textile” korxonasi innovatsion jarayonlarni tashkil etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida korxonaning to‘qimachilik sanoatidagi o‘rni, mavjud ishlab chiqarish quvvatlari, eksport salohiyati va innovatsion rivojlanish imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, energiya ta‘minoti, logistika tizimi, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va malakali kadrlar bilan bog‘liq muammolar investitsion jozibadorlikka ta‘sir qiluvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatildi. Maqolada ishlab chiqarishni raqamlashtirish, “bir darcha” tamoyili asosida boshqaruv tizimini joriy etish, energiya tejovchi texnologiyalardan foydalanish, eksportni kengaytirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *innovatsion jarayonlar, to‘qimachilik sanoati, Hamza Expo Art Textile, xorijiy investitsiyalar, raqamlashtirish, eksport salohiyati, sanoat modernizatsiyasi, logistika tizimi, energiya samaradorligi, ishlab chiqarish texnologiyalari, investitsion jozibadorlik.*

Аннотация

В данной научной статье рассматриваются вопросы организации инновационных процессов, повышения производственной эффективности и совершенствования механизмов привлечения иностранных инвестиций на предприятии «Hamza Expo Art Textile». В ходе исследования изучены роль предприятия в текстильной промышленности, существующие производственные мощности, экспортный потенциал и возможности инновационного развития. Также определены основные факторы, влияющие на инвестиционную привлекательность предприятия, включая энергоснабжение, логистическую систему, внедрение современных технологий и обеспечение квалифицированными кадрами. В статье предложены меры по цифровизации производства, внедрению системы управления по принципу «одного окна», использованию энергосберегающих технологий, расширению экспорта и развитию международного сотрудничества.

Abstract

This scientific article analyzes the organization of innovative processes, improvement of production efficiency, and enhancement of foreign investment attraction mechanisms at “Hamza Expo Art Textile” enterprise. The study examines the company’s role in the textile industry, existing production capacities, export potential, and opportunities for innovative development. In addition, issues related to energy supply, logistics systems, implementation of modern technologies, and qualified workforce are identified as the main factors affecting investment attractiveness. The article proposes measures such as digitalization of production, implementation of a “one-stop-shop” management system, use of energy-saving technologies, expansion of exports, and strengthening of international cooperation.

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish innovatsion rivojlanish bilan chambarchas bog‘liqdir. Ayniqsa, to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining eksportga yo‘naltirilgan muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat yuritayotgan “Hamza Expo Art Textile” korxonasi ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan korxonalardan biridir. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, energiya resurslaridan samarali foydalanish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish masalalari korxonada faoliyatining asosiy strategik yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda. Korxonada innovatsion boshqaruv tizimini rivojlantirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, tannarxni kamaytirish va eksport hajmini kengaytirishga xizmat qiladi.

Korxonaning iqtisodiy faoliyati va mavjud muammolar tahlili

“Hamza Expo Art Textile” korxonasi Oltiariq tumanida faoliyat yurituvchi zamonaviy to‘qimachilik korxonalaridan biri hisoblanadi. Korxonada asosan to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, tikuv-trikotaj mahsulotlarini tayyorlash hamda ularni ichki va tashqi bozorlarga eksport qilish bilan shug‘ullanadi. Korxonada zamonaviy tikuv uskunalari va texnologik jihozlar mavjud bo‘lib, ular ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda korxonada tomonidan mahsulot sifatini yaxshilash, eksport hajmini oshirish va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, tayyor kiyim-kechak mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining ortishi korxonaning iqtisodiy faoliyatida muhim o‘rin egallaydi. Shu bilan birga, korxonada faoliyatida ayrim muammolar ham mavjud bo‘lib, ular ishlab chiqarish samaradorligi va raqobatbardoshlikka salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, ishlab chiqarish jarayonlari to‘liq raqamlashtirilmaganligi sababli ayrim boshqaruv va nazorat ishlari qo‘lda amalga oshirilmogda. Bu esa vaqt yo‘qotilishiga, ortiqcha xarajatlarga va ishlab chiqarish jarayonida

samarasizlikka olib kelmoqda. Korxonada ERP yoki avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarining to‘liq joriy etilmaganligi ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini murakkablashtiradi. Bundan tashqari, energiya ta‘minotidagi uzilishlar ham korxonada faoliyatiga sezilarli ta‘sir qilmoqda. Elektr energiyasidagi qisqa muddatli uzilishlar ishlab chiqarish liniyalarining to‘xtab qolishiga sabab bo‘lib, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ayrim hollarda energiya quvvatining yetarli emasligi zamonaviy texnologiyalarni to‘liq quvvat bilan ishlatish imkonini cheklaydi.

Korxonaning yana bir muhim muammolaridan biri logistika xarajatlarining yuqoriligidir. Tayyor mahsulotlarni eksport qilishda transport xarajatlari katta ulushni tashkil etadi. Ichki logistika tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi mahsulotlarni tez va arzon yetkazib berish imkoniyatini kamaytiradi. Bu esa xalqaro bozorda mahsulot tannarxining oshishiga olib keladi. Shuningdek, korxonada malakali texnik mutaxassislar va zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan kadrlar yetishmasligi kuzatilmoqda. Ayniqsa, avtomatlashtirilgan uskunalarni boshqarish, dizayn, marketing va eksport bilan ishlash yo‘nalishlarida tajribali mutaxassislariga ehtiyoj yuqori. Bu holat ishlab chiqarish samaradorligining to‘liq oshishiga to‘sqinlik qilmoqda. Eksport bozorlarida marketing faoliyatining sustligi ham korxonaning rivojlanishiga salbiy ta‘sir qilmoqda. Korxonada mahsulotlari ayrim tashqi bozorlarga chiqarilayotgan bo‘lsa-da, xalqaro reklama, brend yaratish va elektron savdo platformalaridan foydalanish yetarli darajada rivojlanmagan. Natijada korxonaning eksport geografiyasi kengayishi sekinlashmoqda. Yana bir muhim masala — xorijiy investorlar uchun yetarli axborot bazasining mavjud emasligidir. Investorlar uchun korxonaning moliyaviy ko‘rsatkichlari, ishlab chiqarish imkoniyatlari va investitsion loyihalari haqida batafsil raqamli ma‘lumotlarning yetishmasligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonini qiyinlashtirmoqda. Umuman olganda, yuqoridagi muammolar “Hamza Expo Art Textile” korxonasining ishlab chiqarish samaradorligini pasaytirib, uning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli korxonada innovatsion boshqaruv tizimlarini joriy etish, ishlab chiqarishni raqamlashtirish, logistika va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda malakali kadrlar tayyorlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Innovatsion jarayonlarni tashkil etish mexanizmlari

“Hamza Expo Art Textile” korxonasida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirish uchun innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Hozirgi globallashtirish sharoitida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv tizimini takomillashtirish korxonaning barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi. Shu sababli korxonada innovatsion faoliyatni rivojlantirishning bir necha ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish zarur

hisoblanadi. Birinchi navbatda, ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonada ERP va CRM tizimlarini joriy qilish orqali ishlab chiqarish, ombor, logistika va moliyaviy jarayonlarni yagona elektron tizim asosida boshqarish imkoniyati yaratiladi. Bu tizim ishlab chiqarish bosqichlarini avtomatik nazorat qilish, buyurtmalarni tezkor boshqarish va mahsulot harakatini monitoring qilish imkonini beradi. Natijada vaqt tejaladi, ortiqcha xarajatlar kamayadi va mahsulot sifati ustidan nazorat kuchayadi. Raqamlashtirish jarayoni, ayniqsa, eksport buyurtmalarini boshqarishda samaradorlikni oshirib, korxonaning xalqaro bozordagi faoliyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Korxonada innovatsion rivojlanishning yana bir muhim yo‘nalishi energiya samaradorligini oshirish hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida elektr energiyasi asosiy resurslardan biri bo‘lib, energiya xarajatlarining yuqoriligi mahsulot tannarxiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli quyosh panellari, energiya tejavchi texnologiyalar va zamonaviy avtomatlashtirilgan uskunalarni joriy etish muhimdir. Bu nafaqat energiya xarajatlarini kamaytiradi, balki ishlab chiqarishning uzluksizligini ta’minlaydi va ekologik barqarorlikka ham xizmat qiladi. Zamonaviy texnologiyalar asosida ishlovchi uskunalar mahsulot ishlab chiqarish unumdorligini oshirib, inson omiliga bog‘liq kamchiliklarni kamaytiradi.

Korxonaning innovatsion rivojlanishida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ham muhim omil hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarish hajmini kengaytirish, yangi texnologiyalarni olib kirish va eksport salohiyatini oshirish imkonini beradi. Shu maqsadda korxonadan tomonidan investitsion loyihalar portfelini shakllantirish, xalqaro biznes forumlari va ko‘rgazmalarda faol ishtirok etish, xorijiy hamkorlar bilan memorandumlar tuzish muhimdir. Bundan tashqari, eksport hajmini oshirish bo‘yicha aniq strategiyalar ishlab chiqish, soliq va bojxona imtiyozlaridan samarali foydalanish ham investorlar uchun qulay muhit yaratadi. Investorlar uchun “bir darcha” tizimining yo‘lga qo‘yilishi esa ruxsatnoma va hujjatlashtirish jarayonlarini soddalashtirib, investitsiya oqimini tezlashtiradi. Innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda malakali kadrlar tayyorlash alohida o‘rin tutadi. Korxonada huzurida amaliy o‘quv markazlarini tashkil etish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va xodimlarning malakasini muntazam oshirib borish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, texnologlar, dizaynerlar, logistika mutaxassislari hamda tikuv va to‘quv ustalarining zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi korxonaning innovatsion salohiyatini mustahkamlaydi. Malakali kadrlar mavjudligi yangi texnologiyalarni tez o‘zlashtirish va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish imkonini beradi. Korxonada faoliyatida eksport salohiyatini kengaytirish ham innovatsion rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Mahsulotlarni xalqaro standartlar asosida sertifikatlash, elektron savdo platformalaridan foydalanish va yangi eksport bozorlariga chiqish korxonaning xalqaro iqtisodiy aloqalarini kengaytiradi. Shuningdek, xalqaro marketing

strategiyalarini ishlab chiqish, brend yaratish va reklama faoliyatini kuchaytirish eksport hajmini oshirishga xizmat qiladi. Natijada korxonaning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi ortib, eksportdan olinadigan daromad hajmi sezilarli darajada ko‘payadi. Umuman olganda, innovatsion jarayonlarni samarali tashkil etish “Hamza Expo Art Textile” korxonasining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy boshqaruv tizimlari, energiya tejavchi texnologiyalar, xorijiy investitsiyalar, malakali kadrlar va eksportni rivojlantirish mexanizmlarining uyg‘unlashuvi korxonaning uzoq muddatli rivojlanishini ta’minlaydi.

“Hamza Expo Art Textile” korxonasida kutilyotgan innovatsion jarayonlarni takomillashtirish natijalari

Yo‘nalish	Kutiladigan natija	O‘lchov ko‘rsatkichlari
Ishlab chiqarish samaradorligi	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi oshadi	5–10 % o‘shish
Eksport faoliyati	Tashqi bozorlarga eksport hajmi kengayadi	7–10 % o‘shish
Bandlik darajasi	Yangi ish o‘rinlari yaratiladi	30+ ish o‘rni
Energiya samaradorligi	Elektr energiyasi xarajatlari kamayadi	5–10 % qisqarish
Raqamlashtirish	Ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlari tezlashadi	6–10 % vaqt tejaladi
Investitsion faoliyat	Xorijiy investitsiyalar hajmi oshadi	1.5 baravar o‘shish
Mahsulot sifati	Xalqaro standartlarga mos mahsulot ulushi oshadi	ISO va eksport sertifikatlari soni ortadi
Logistika tizimi	Mahsulot yetkazib berish samaradorligi yaxshilanadi	Transport xarajatlari 5 % kamayadi
Marketing va savdo	Yangi eksport bozorlari shakllanadi	2–3 ta yangi hamkor davlat
Kadrlar salohiyati	Malakali mutaxassislar soni oshadi	O‘quv kurslari va treninglar kengayadi

Yo‘nalish	Kutiladigan natija	O‘lchov ko‘rsatkichlari
Raqobatbardoshlik	Korxonaning xalqaro bozordagi mavqei mustahkamlanadi	Eksport ulushi va daromad oshadi
Ijtimoiy rivojlanish	Aholi bandligi va daromadi ortadi	Ishchilar daromadi 5–8 % oshadi

“Hamza Expo Art Textile” korxonasi to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va eksport qilish bilan shug‘ullanuvchi zamonaviy sanoat korxonalaridan biri hisoblanadi. Korxonada faoliyatida innovatsion jarayonlarni tashkil etish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va xalqaro bozorda raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirish asosiy innovatsion yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. ERP va CRM tizimlarini joriy etish orqali ishlab chiqarish, logistika, ombor va moliyaviy jarayonlarni yagona elektron tizim asosida boshqarish imkoniyati yaratiladi. Bu esa vaqtni tejash, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifati nazoratini kuchaytirishga yordam beradi.

Innovatsion rivojlanishda energiya samaradorligini oshirish ham muhim o‘rin tutadi. Quyosh panellari, energiya tejavchi texnologiyalar va avtomatlashtirilgan uskunalarni joriy qilish elektr energiyasi xarajatlarini kamaytirib, ishlab chiqarishning uzluksizligini ta‘minlaydi. Zamonaviy uskunalarda mahsulot tannarxini kamaytirish bilan birga ishlab chiqarish unumdorligini ham oshiradi.

Korxonaning rivojlanishida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim omillardan biri hisoblanadi. Investitsion loyihalar portfelini shakllantirish, xalqaro biznes forumlarda ishtirok etish, eksport strategiyalarini ishlab chiqish va investorlar uchun “bir darcha” tizimini joriy etish xorijiy investorlar bilan hamkorlikni kengaytiradi. Bu esa korxonaga yangi texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv tajribalarini olib kirishga xizmat qiladi. Malakali kadrlar tayyorlash innovatsion rivojlanishning asosiy shartlaridan biridir. Korxonada huzurida amaliy o‘quv markazlarini tashkil etish, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish va xodimlarning malakasini oshirish orqali texnologlar, dizaynerlar, logistika mutaxassislari hamda tikuv ustalarining kasbiy bilimlari rivojlantiriladi. Eksport salohiyatini oshirish maqsadida mahsulotlarni xalqaro standartlar asosida sertifikatlash, elektron savdo platformalaridan foydalanish va yangi eksport bozorlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Bu korxonaning xalqaro bozordagi mavqei mustahkamlab, eksport hajmini oshirishga yordam beradi. Innovatsion jarayonlarni takomillashtirish natijasida ishlab chiqarish hajmi 5-

10 foizga oshishi, eksport hajmi 7–10 foizga kengayishi, 300 dan ortiq yangi ish o‘rinlari yaratilishi hamda energiya xarajatlari 5-10 foizga kamayishi kutilmoqda. Shuningdek, logistika tizimi yaxshilanib, mahsulot sifati va korxonaning raqobatbardoshligi oshadi.

“Hamza Expo Art Textile” korxonasida innovatsion jarayonlarni tashkil etish va investitsion mexanizmlarni takomillashtirish korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ishlab chiqarishni raqamlashtirish, energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va malakali kadrlar tayyorlash orqali korxonaning eksport salohiyati va xalqaro bozordagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, logistika tizimini modernizatsiya qilish, marketing faoliyatini rivojlantirish va xalqaro standartlarga mos ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish korxonaning uzoq muddatli iqtisodiy barqarorligini ta’minlaydi. Umuman olganda, innovatsion mexanizmlarning samarali joriy etilishi “Hamza Expo Art Textile” korxonasining rivojlanishiga, yangi ish o‘rinlari yaratilishiga va hududiy sanoat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://oltiariq.uz/>
2. <https://www.exporthub.com/hamza-expo-art-textile-10486928/>
3. <https://uz.linkedin.com/company/heattex>
4. “Oltiariq tumani hokimligi – rasmiy veb-sayti”. Tuman haqida umumiy ma’lumotlar [2025.](#)
5. <https://uzasiaexport.com/exporters/hamza-expo-art-textile---textile-cluster.htm?ysclid=mp5q3rjzlk120963455>